Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 1 (2023) · “Axborot oqimlari va intellektual tizimlarning ijtimoiy, iqtisodiy va texnik-texnologik tarmoqlardagi o‘rni” mavzus...

materiallar to‘plami

ELEKTRON O‘QUV ADABIYOTLARINING MASOFAVIY TA’LIMNI TASHKIL ETISHDAGI AHAMIYATI.

M.Yusupov, Тошкент молия институти, Андижон факультети Мутахассислик фанлари кафедраси доценти, т.ф.ф.д. (PhD)

Xusanboyeva Tursunoy Muxammadqasimdjanovna,
Andijon mashinasozlik instituti,
“Iqtisodiyot” kafedrasi stajyor-o‘qituvchi

Annotatsiya

Ushbu maqolada masofaviy ta’limni tashkil etishdagi elektron o‘quv adabiyotlarining o‘rni va uning afzalliklarini yoritilib berilgan.

Kalit so‘zlar: *elektron darslik, masofaviy ta’lim, multimediya.*

Masofaviy ta’limni tashkil qilish va o‘quv jarayoniga tadbiq qilish bo‘yicha tadbirlar ishlab chiqilgan. Tadbirda ko‘zda tutilgan reja asosida institutda masofaviy ta’imni tashkil etish bo‘yicha ishlar quyidagi to‘rt yo‘nalish bo‘yicha bo‘lingan:

- masofaviy ta’limda ishtirok etuvchilar bilan olib boriladigan tashkiliy va o‘quv-uslubiy ishlar.

- masofaviy ta’limda qo‘llaniladigan axborot va telekommunikatsion texnologiyalar bilan tanishish, o‘rganish va kerakli texnikaviy imkoniyatlarga ega bo‘lgan kompyuter va dasturiy majmuani yaratish bo‘yicha ishlar.

- Masofaviy ta’lim uchun o‘quv uslubiy materiallarni yaratish bo‘yicha ishlar.

- Masofaviy ta’limda qo‘llaniladigan o‘quv materiallarini yaratish texnologiyasini o‘rganish va uni joriy qilish bo‘yicha ishlar.

Masofaviy ta’lim tinglovchisi fan dasturlari, chop etilgan yoki elektron ko‘rinishdagi darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar (darslik, mashqlar to‘plami, laboratoriya ishlarini bajarish uchun qo‘llanma va boshqalar) ni, shuningdek, har bir ko‘rinishdagi mashg‘ulotlar bo‘yicha mustaqil ishlarni tashkil qilish uchun uslubiy qo‘llanmalarni o‘z ichiga olgan o‘quv-uslubiy majmualarga ega bo‘lishi kerak.

Elektron darslik masofaviy ta’limning eng asosiy elementi bo‘lib, o‘quv fanini yoki uning ma’lum bir bo‘limini mustaqil o‘rganishni ta’minlovchi va o‘zida odatdagi darslik, ma’lumotnoma, mashqlar to‘plami, laboratoriya praktikumi xususiyatlarini birlashtiruvchi dasturiy-uslubiy majmuadir. Ushbu «Elektron ma’ruzachi» darslik yoki o‘quv qo‘llanmasining faqat barcha afzalliklarini saqlab qolish uchun mo‘ljallangan bo‘lmasdan, balki kompyuterlar tomonidan ta’minlanadigan zamonaviy axborot texnologiyalari, multimedia imkoniyatlaridan to‘la ravishda foydalanish uchun yaratiladi. Bu imkoniyatlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- fizikaviy, kimyoviy va shunga o‘xshash jarayonlarni dinamikada ko‘rsatish;

Published: 10.11.2023

Cite this article: M.Yusupov, Xusanboyeva Tursunoy Muxammadqasimdjanovna (2023). Elektron o‘quv adabiyotlarining masofaviy ta’limni tashkil etishdagi ahamiyati. Emro Science and Education, 1(1). https://journal.emro.uz/public/maqola/396

© 2023 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

- bevosita kuzatish imkoniyati bo‘lmagan ob’yekt va jarayonlarni ko‘rgazmali ko‘rsatish;
- o‘zining o‘rganishi uchun noyob yoki qimmatbaho qurilmalar, materiallar, reagentlarni talab qiluvchi shuningdek insonning sog‘ligi va hayoti uchun xavfli ob’yekt va jarayonlarni kompyuterli modellashtirish va ularni ko‘rgazmali ko‘rsatish;
- darslik muallifining audioizohini berish;
- o‘quv materiallariga audio va video ko‘rinishlarni, animatsiyani kiritish;
- matnlarga bog‘langan yo‘naltirishlar va jo‘natishlarni tashkil qilish;
- murakkab hisoblarni, natijalarni raqamli yoki grafik ko‘rinishda ko‘rsatish bilan tezkor amalga oshirish;
- talabaning masalalar va testlarni bajarishdagi bilimini o‘zi tomonidan tezkor nazorat qilish.

Xammamizga ayonki, sifatli va yuqori toifadagi elektron darsliklar yaratish bo‘yicha respublika oliy ta’lim muassasalari miqyosida raqobat muhiti vujudga kelmoqda. Buning natijasida har tomonlama jahon standartlariga javob bera oladigan elektron darslik vujudga keladi. Hozirgi kunda axborot texnologiyasining eng zamonaviy imkoniyatlarini ta’lim-tarbiya, yosh mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlashga joriy etish ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu bilan birga, Respublikamiz ta’lim tizimida o‘qituvchi tinglovchi va o‘zaro tinglovchilar aloqasini yo‘lga qo‘yish maqsadida ikki tomonlama kommunikatsion texnologiyalar keng qo‘llanilmoqda.

Elektron o‘quv adabiyotlari - zamonaviy axborot texnologiyalari asosida ma’lumotlarni jamlash, tasvirlash, yangilash, saqlash, bilimlarni interaktiv usulda taqdim etish va nazorat qilish imkoniyatlariga ega manba bo‘lib, bunda jonli ovoz, rangli tasvir, musiqa va animatsiya elementlaridan foydalanish natijasida materialni o‘zlashtirish, eslab qolish imkoniyati mavjudligi talabalarni fikrlash qobiliyatini bir necha bor oshiradi. Elektron adabiyotlarni yaratishda quyidagi axborot texnologiyalarining elementlaridan foydalanish yo‘lga qo‘yiladi: mundarijalarda giperssilkalardan foydalanish, tayanch so‘z va iboralar tezkor izohlar berish, animatsiya va multimedia elementlaridan foydalanish, jarayonni turli tasvirlar orqali ekranda talabalarga etkazish imkonini beradi. Bunday ishlanmalarni yaratishda zamonaviy darsliklar, mavjud o‘quv qo‘llanmalar, video tasvirlar, o‘quv filmlaridan keng foydalanish mumkin.

O‘quv materiallarining elektron variantlarini yaratish uchun xorijiy, markaziy va turdosh o‘quv muassasalari tajribalaridan keng foydalanilmoqda va umumlashtirilmoqda.


Olib kelingan va yaratilayotgan elektron o’quv adabiyotlaridan keng foydalanish hamda respublikamiz ta’lim tizimida o’qituvchi - tinglovchi va o’zaro tinglovchilar aloqasini yo’lga qo’yish maqsadida maxsus jihozlangan videokonferentsiya zallari tashkil etilmoqda, kompyuterlar, raqamli diaproyektorlar, video, audio vositalari bilan ta’minlash ishlari olib borilmoqda. O’quv materiallarining elektron variantlarini

yaratish uchun xorijiy, markaziy va turdosh o’quv muassasalari tajribalaridan keng foydalanilmoqda va umumlashtirilmoqda.



2-Jadval. Masofaviy ta’limning o’quv kursining eng to’la varianti:

Hozirgi kunda mavjud texnika va texnologiyalardan samarali foydalangan xolda masofaviy ta'limni tashkil etish, iloji boricha elektron o‘quv adabiyotlari yaratish uchun nazariy va amaliy ishlar qilinayotgani ma’lum. Bu sohada yangiliklarga intilish, rivojlangan mamlakatlarning ta’lim sohalarini o‘rganish va amaliyotga joriy etish dolzarb masala hisoblangani holda, hozirgi kunda respublika oliygohlari bilan o‘zaro aloqalar yo‘lga qo‘yilgani ma'lum.



3-Jadval. Masofaviy talimni tashkil etish

Yuqoridagi ma’lumotlardan kelib chiqib masofaviy ta’limni tashkil etishda quyidagicha tizim yaratilishi kerak bo‘ladi. (3-jadval) Bu tizimning asosiy elementlaridan biri bo‘lgan elektron darslik sifatli, chiroyli va mazmunli bo‘lishi bilan birga talabalar uchun foydalanishga qulay va iloji boricha zerikarli bo‘lmasligi kerak. Elektron darsliklar yaratishda asosan uning dasturiy va texnik ta’minoti qulay va sifatli maxsulot yarata oladigan bo‘lishi lozim. Hozirgi kunda bu soha dasturiy va texnik ta'minotiga shak shubha yo‘q, lekin bu dasturlardan samarali foydalana oladigan va texnik holati bilan to‘liq tushuna oladigan mutaxassislar unchalik ko‘p emasligini bilganimiz holda rivojlangan davlatlar mutaxassislari bilan tez-tez malakalar oshirib turmoq lozim bo‘ladi. Kundan kunga taraqqiyot rivojlangan sayin bunday dastur va texnik qurilmalar yangilanib borishi aniq, shuning uchun yuqoridagilarni hisobga olib yuqori sifatli elektron darsliklar yaratish tizimi hozirgi kun uchun muhim vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Masofadan o‘qitish Texnika va Texnologiyasi. Xalqaro Ilmiy - Amaliy Konferentsiya. Ma'ruzalar to‘plami. Toshkent,2002.

126,128,129,130,139 - betlar.

2. Axborot Kommunikatsion Texnologiyalari asosida elektron o‘quv adabiyotlarini yaratish: tajriba, muammo va istiqbollar. Mavzuyidagi Respublika Ilmiy — Amaliy Anjumanining Ma'ruzalar to‘plami Toshkent.2004. 27,51,52.63,54,61. Betlar

3. V.G.Potemkin. Sistema injenernix i nauchnix raschetov Matlab 5.x: —Tom 1,2. Moskva: «Dialogmifi», 1999. 366,304 bet

4. Maxammadqasimdjanovna X. T., NilyufarJamoldinovna O., Boybuvayevna Y. U. ANALYSIS OF SCIENTIFIC APPROACHES ON THE ESSENCE OF THE CONCEPT OF DIGITAL ECONOMY //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2023. – Т. 11. – №. 3. – С. 317-320.

5. Maxammadqasimdjanovna, Xusanboyeva Tursunoy, Odashova NilyufarJamoldinovna, and Yusupova Umidaxon Boybuvayevna. "ANALYSIS OF SCIENTIFIC APPROACHES ON THE ESSENCE OF THE CONCEPT OF DIGITAL ECONOMY." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 11.3 (2023): 317-320.

6. Veb sayt https://www.researchgate.net/publication/